

## JON HEKTOR SENT-JON AMERIKA ROMANCHILIGI ASOSCHILARIDAN BIRI

**Umarova Xurshida Zikiryoxonovna**

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

**Anvarova Noilaxom Davlatjonovna**

Farg'ona Davlat Universiteti, Ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** AQSH adabiyotida roman janri o'ziga xosligi va keng qamrovligi bilan ajralib turadi. Garchi, bu janr biroz kechroq rivojlangan bo'lsa ham, jahon adabiyotida o'zining beqiyos o'rni bor. Amerika romanchiligi rivojiga o'tkir qalam sohiblari va boshqa ijtimoiy o'zgarishlar sabab bo'lgan. Jon Hektor Sent-Jon o'zining asarlari va yangi qarashlari bilan Amerika romanchiligini qaytadan kashf qildi. Ayniqsa, uning "Amerikalik fermerdan maktublar" romani AQSH romanchiligining taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan.

**Kalit so'zlar:** Jon Hektor Sent-Jon, Amerika romanchiligi, „Amerikalik fermerdan maktublar“, Amerika romanchiligi taraqqiyoti.

Amerika romanlarida amerikaliklarning madaniy-ma'naviy hayoti, ichki ruhiy holati va hayotga qarashlari o'z aksini topgan. Bu janr tarix davomida ko'plab omillar ta'sirida rivojlangan. Texnologik taraqqiyot, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar, iqtisodiy o'sish va siyosiy o'zgarishlar bu omillarning yaqqol misolidir. Amerikada romannavislikning rivojlanishi Benjamin Franklin va unga zamondosh Tomas Jefferson, Tomas Peyn, Jon Adams [ 1, 196-bet ] singari yozuvchi va davlat arboblarning nomi bilan bog'liqdir. Shuningdek, bu taraqqiyot yo'lida Jon Hektor Sent-Jonning ham beqiyos o'rni bor. Jon Hektor Sent-Jon Amerika romanlarining asoschilaridan biri sifatida keng tan olingan. Uning adabiy hissasi Amerikaning noyob adabiy ovozigacha yo'l ochibgina qolmay, balki avlodlar uchun kitobxonlarni o'ziga jalb qiladigan yangi janrni ham yaratdi. XVIII asr oxirida tug'ilgan Sent-Jonning hayotiy tajribalari va inson tabiatini sinchkovlik bilan kuzatishlari uning yozuvlarini shakllantirdi va uni Amerika adabiyotining taniqli vakiliga aylantirdi. Ushbu maqola Sent-Jonning hayotini o'rganadi, uning mashhur asarlarini va Amerika romaniga doimiy ta'sirini ko'rib chiqadi.

Jon Hektor Sent-Jon de Krevekoer 1735-yilning 31-yanvarida Fransiyaning Kan shahrida tug'ilgan. U zodagon oila farzandi bo'lib, 20 yoshida sarguzasht va yangi imkoniyatlar izlash maqsadida Amerikaga yo'l oladi. Fransiyani Krevekoer 1755 yilda Nyu-Yorkka keldi va Nyu-Yorkning Orinj okrugida dehqonchilik bilan shug'ullandi. Keyinchalik u Mehitable Tippet ismli amerikalik ayolga uylandi va Britaniya fuqarosiga aylandi. Dehqonchilikdan tashqari, Jon Hektor shuningdek, tadqiqotchi bo'lib ishlagan va Amerika koloniyalari bo'ylab ko'plab sayohatlar uyushtirdi. Bu sayohatlar unga turli millatdagi odamlarni kuzatish, ular bilan muloqot qilish imkonini berdi va keyinchalik uning faoliyatiga ta'sir qildi. U turli jurnal va gazetalarda chop etilgan Amerika hayoti to'g'risidagi kuzatishlari haqida insho va xatlar yozishni boshladi. Amerika inqilobidan keyin Krevekoer Fransiyaga qaytib keldi, lekin Fransiyadagi inqilobning ham siyosiy muhiti tufayli

qiyinchiliklarga duch keldi. Bu vaqt ichida u oilaviy mulkini yo'qotdi va bir muddat yashirinishga majbur bo'ldi.

Krevekoer oxir oqibat 1790 yilda Amerikaga yo'l oldi, ammo moliyaviy jihatdan qiynaldi. Jon Hektor Sent-Jon de Krevekoer 1813-yil 12-noyabrda Fransiyaning Sarsel shahrida 78 yoshida vafot etdi. Hayotining keyingi davridagi moliyaviy qiyinchiliklarga qaramay, Amerikaning dastlabki davrlardagi jamiyatni tasvirlashi va Amerika romanchiligining o'zig xos jihatlarini kashf etishga qo'shgan hissasi asarlarining mashhur bo'lishiga olib keldi.

Jon Hektorning adabiy merosiga nazar tashlasak, uning eng mashhur asari "Amerikalik fermerdan maktublar" nomli epistolyar romanidir. Bu asar 1782-1784 yillar orasida yozilgan bir qator xatlardan iborat bo'lib, Amerika va Fransiyada juda ham mashhur bo'lgan. Avliyo Jonning maktublari Amerikaning dastlabki davridagi qishloq hayoti va dehqonchilik faoliyatini aks ettiradi. Bu asarning yozilishidan maqsad Amerikani Yevropaga ko'chib kelayotgan odamlarga tanishtirishdir. Jon Hektor bu asari tufayli Amerika romanlarining muhim vazifasini ko'rsatib beradi, ya'ni "Amerika romani odatda Yangi Dunyodagi hayotning ajoyib va qaysidir ma'noda mislsiz hududlarini o'zlashtirish va sivilizatsiya qilishdan ko'ra, tadqiq qilish va uning anomaliya(me'yordan chetga chiqish)lari va dilemmalarini, ya'ni bir- biriga zid bo'lgan ikki imkoniyatlardan birini tanlashga majbur bo'lishini aks ettirishdan iboratdek tuyuladi. U imperiya qurishni emas, balki yangi joy va yangi ruhiy holatni kashf qilishni xohlaydi". [2, 43] Maktublarda qishloq xo'jaligining ahamiyati, tabiiy boyliklari, mahalliy aholi va mustamlakalarning ijtimoiy tuzilishi kabi mavzular muhokama qilinadi. "Amerikalik fermerdan maktublar" romanida Jon Hektor Nyu-Yorkdagi Orinj okrugida emas, balki Karlayl (Pensilvaniya shtati) yaqinidagi fermadan kelib chiqqan Fermer Jeyms obrazidan foydalanib agrar hayotni maqtaydi. Bir asr oldin, bu yerdagi keng dalalar va obod uylar bir butun sahro bo'lganini ta'kidlaydi. Ammo, insoniyatning qo'li bilan ko'plab ijobiy o'zgarishlar bo'lganligini e'tirof etadi. Shu bilan birga birga, janubiy shtatlarda qullikning shafqatsizligini va g'arbiy chegaradagi qonunbuzarliklarni eslatib o'tadi: "Hatto xotirjamlik va baxtdan nafas olayotgandek tuyuladigan mo'tadil iqlim sharoitida ham qullik zahari, zulmkorlik va xurofot g'azabi insonga qarshi birlashadi!" [3, 239]

Sent-Jonning asarlari ijtimoiy mavqei yoki kelib chiqishidan qat'i nazar, barcha shaxslar uchun erkinlik, tenglik va imkoniyatlar kabi asosiy Amerika qadriyatlarini o'rganishga qaratilgan. Uning "Amerika orzusi" haqidagi ta'rifi odamlar o'zlari uchun yaxshiroq hayot yaratishi mumkin bo'lgan mamlakat sifatida o'sha paytda ko'plab kitobxonlarning tasavvurida qolgan va hali ham zamonaviy talqinlarga ta'sir qilishda davom etmoqda. Avliyo Jon ijodi o'z romanlarida Amerikaning mohiyatini aks ettirishga intilganligi amerikalik yozuvchilarning keyingi avlodlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Jeyms Fenimor Kuper va Mark Tven kabi mualliflar uning milliy o'ziga xoslik, madaniy xilma-xillik va Amerika tajribasi bilan bog'liq hikoyalar va mavzularga yondashuvidan ilhomlangan. Umuman olganda, Jon Hektor Sent-Jonning "Amerikalik fermerdan maktublar" asari va Amerika qadriyatlari, madaniy xilma-xillik va qishloq hayotini chuqur tadqiq etishi unga amerikalik romanlarning asoschilari orasida muhim o'rin egalladi. Jon Hektor ijodining Amerika adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasi va zamonaviy davr yozuvchilarining asarlarida sezilarli ta'siri borligi sababli, bugungi kungacha Amerika adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lib keldi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. X. Umarova. AQSh adabiyotida psixologik roman tadriji. Ijtimoiy gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. Toshkent. 2023.10- son. 3- jild 195- bet.
2. Jon Hector Sant-Jon. „The letters from an American Farmer“. Great Britain 1971. 239- bet.
3. Donald.M.Kartiganer va Malcolm A. Griffith. Theories of American literature.New York. The Macmillan company.1937.43- bet.
4. <https://quod.lib.umich.edu/w/wsfh/0642292.0039.013/--american-farmer-as-french-diplomat-j-hector-st-john-de?rgn=main;view=5>.<https://onlinebooks.library.upenn.edu/webbin/book/lookupname?key=St%2E%20John%20de%20Cr%26egrave%3Bvecoeur%2C%20J%2E%20Hector%2C%201735%2D1813>